

## MADANIYAT VA TA'LIM



Maktab – har qanday kasb sari bosilgan ilk qadamdir. Maktabdan so'ng bitiruvchilar kollej, institut va universitetlarda o'qiydilar. Odamlar ilm oladigan maskanlar ta'lif muassasasi deyiladi.

Kutubxona, muzey, teatr, konsert va ko'rgazma zallari, sirk – madaniyat muassasalaridir. Bu yerlarda odamlar adabiyot va san'at asarlari bilan tanishadilar, kitob o'qiydilar, suratlarni, spektakllarni tomosha qiladilar.



*Yoshlar ijod saroyi*



*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*



*O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri*



*I.V. Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyi*



1. Bu suratlarda qaysi madaniyat va ta'lif muassasalari ko'rsatilgan?
2. Siz yashaydigan viloyatda qanday ta'lif va madaniyat muassasalari bor?



Muzeylar bir-biridan farq qiladi: tarixiy, san'at, qo'g'irchoq, texnologiya va boshqalar. O'lkashunoslik muzeylarida biror viloyat, tuman yoki shaharning o'tmishi va buguni haqida hikoya qiluvchi eksponatlar qo'yiladi.



1. Qaysi muzeylarda bo'lgansiz?
2. Sizda nimalar ko'proq taassurot qoldirgan?




Muzey yoki ko'rgazmaga borganingiz haqida qisqacha hikoya yozing.



Keling, madaniyat muassasalari bilan yaqindan tanishamiz.

Teatrlarda spektakllar tayyorlanadi va namoyish etiladi. Tomosha mavzuga mos bezatilgan sahnada bo'lib o'tadi. Tomoshabinlar qator o'rindiqlarda o'tiradilar. Katta teatrlarda tomoshabinlar zali uchga bo'lingan bo'ladi: parter, amfiteatr va loja.

*Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri*



Odamlar konsert zallariga orkestr, ansambl yoki yakkaxon xonandalar ijrosidagi kuy-qo'shiqlarni tinglash uchun kelishadi. Bunday zallarning asosiy vazifasi musiqiy cholg'ularning tovushini bor jozibasi bilan tomoshabinlarga yetkazib berishdir.

*"O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyi*


Kinoteatrlar kino namoyish qilish uchun mo'ljallangan. Bu yerda ovoz va tasvir sifati televizorga qaraganda ancha yuqori bo'ladi. Filmlar katta ekranda turli tomondan ovoz chiqaruvchi karnaylar, ba'zan esa maxsus effektlar yordamida namoyish etiladi.

*Kinoteatr*



Ko'rgazmalar zali xuddi muzey zallariga o'xshaydi. Bu yerda suratlar, haykallar yoki boshqa san'at asarlari namoyish etiladi. Muzeylardan farqli ravishda ko'rgazmalarning vaqt cheklangan bo'ladi. Bitta ko'rgazma yopilgandan keyin o'sha zalda boshqa ko'rgazma ochiladi.

*Ikuo Xirayama xalqaro madaniyat karvonsaroyi*



Sirk tomoshalari doirasimon sahnada – arenada o'tkaziladi. Bu yerda akrobatlar, hayvon o'rgatuvchilar, sehrgar yoki masxarabozlar navbatma-navbat chiqib, tomosha ko'rsatadi. Tomoshabinlar aylana shaklida o'rnatilgan o'rindiqlarda o'tiradi. Sirkda har bir qator oldingisidan biroz balandroq bo'ladi, shuning uchun arena har qanday joydan aniq ko'rinishi turadi.

*O'zbekiston davlat sirkasi*

1. Maktabdagagi ijod zali qaysi madaniyat muassasasiga o'xshaydi?
2. Siz qaysi madaniyat muassasasiga borgansiz?



### Partadoshingizga biror qiziqarli voqeani gapirib bering.

**Foydalanish uchun so'zlar:** spektakl, konsert, sirk tomoshasi, rasmlar ko'rgazmasi, bolalar rasmlari ko'rgazmasi, maktabdagagi sahna ko'rinishi.



### Teatr yoki konsert zalida o'zini tutish odobi:

- tomoshaga o'z vaqtida keling;
- qatorlar orasidan o'tsangiz, o'tirganlarga teskari o'tmang, "Kechirasiz, o'tib ketsam maylimi?" deyishni unutmang;
- tomosha paytida o'rindan turish, boshqalarga xalaqit berish, sahnani to'sib olish mumkin emas;
- zaldan chiqish kerak bo'lib qolsa, shovqin solmay, sekingina chiqing;
- teatrga jonivor bilan kirmang;
- teatrga oziq-ovqat va ichimlik olib kelmang;
- tomosha paytida gaplashmang, telefoningizni o'chirib qo'ying;
- tomosha tugaganda san'atkorlarni qarsaklar bilan olqishlang.

Bu ro'yxatga yana nimalarni qo'shish mumkin?



Maktabimiz ijod zalida ham qoidalar xuddi teatrdagidek ekan!



Ba'zida tomosha paytida gapirgim, fikr bildirigm keladi. Hech o'zimni to'xtata olmayman-da.



Lekin bu yaxshi emas. Yoningdagilarga ham, san'atkorlarga ham xalaqit berasan.



### Sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

Minarda, ma'ruza qilayotgan yoki doskaga chiqib, savolga javob berayotgan odamni qanday qilib qo'llab-quvvatlash, unga hurmat ko'rsatish mumkin? Tinglovchilar yoki tomoshabinlar uchun tavsiyalar ro'yxatini tuzing.



Teatrga, sirkka, konsert yoki ko'rgazmaga sayohat mavzusida rasmlar chizing.